

XALXODJAYEVA Nargiza

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
Ijtimoiy fanlar va huquq kafedrasi tayanch doktoratni
e-pochta: nxolxojayeva@gmail.com*

ISLOMDA BOLALIK VA BOLA HUQUQLARINING TA'MINLANISHI

ПЕРИОДЫ ДЕТСТВА И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВ РЕБЕНКА В ИСЛАМЕ

STAGES OF CHILDHOOD, AND THE PROVISION OF CHILDREN'S RIGHTS IN ISLAM

Annotatsiya. Islomda bolalik davri inson hayotining eng muhim va hurmatga loyiq bosqichi hisoblanadi. Islom dinida bolalarga alohida e'tibor va mehr-shafqat bilan munosabatda bo'lishga buyurilgan. Ushbu maqola bola huquqlari tarixi, islom dinida bola va bolalik davrlariga beriladigan e'tibor, bolaning huquqlari va ularning kafolatlanishi masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada islom manbalari – Qur'oni karim va sunnat, shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarga asoslangan holda, bolaning hayoti, sog'lig'i, tarbiyasi, ta'limi, mulkiy va ijtimoiy huquqlari tahlil qilinadi. Shuningdek, islom huquqida yetim bolalarga nisbatan ko'rsatiladigan g'amxo'rlik va ularning huquqlari alohida e'tirof etiladi. Tadqiqot davomida islom dini qadriyatlarining bolalarga nisbatan mehr-shafqat, adolat va mas'uliyat tamoyillariga asoslanganligi hamda zamonaviy jamiyatda bola huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: bola huquqlari tarixi, islom, bola, bolalik, huquqlar, Qur'on, Sunnat, tarbiya, mas'uliyat, mehr-shafqat.

Аннотация. В исламе период детства считается одним из самых важных и почитаемых этапов человеческой жизни. Исламская религия предписывает относиться к детям с особым вниманием, любовью и милосердием. Данная статья посвящена изучению истории прав ребенка, внимания, уделяемого ребенку и периодам детства в исламе, а также вопросам прав ребенка и их гарантий. В статье на основе исламских источников —

Священного Корана и Сунны, а также современных исследований — анализируются права ребенка на жизнь, здоровье, воспитание, образование, а также его имущественные и социальные права. Кроме того, особое внимание уделяется заботе о детях-сиротах и их правам в исламском праве. В ходе исследования демонстрируется, что исламские ценности основаны на принципах милосердия, справедливости и ответственности по отношению к детям, и играют важную роль в обеспечении прав ребенка в современном обществе.

Ключевые слова: история прав ребенка, ислам, ребенок, детство, права, Коран, Сунна, воспитание, ответственность, милосердие.

Abstract. In Islam, childhood is considered one of the most important and respected stages of human life. The Islamic religion mandates treating children with special attention, compassion, and kindness. This article is dedicated to the study of the history of children's rights, the attention given to the child and stages of childhood in Islam, as well as the issues regarding children's rights and their guarantees. Based on Islamic sources—the Holy Quran and the Sunnah—as well as modern research, the article analyzes the child's rights to life, health, upbringing, education, property, and social welfare. Furthermore, the care extended to orphans and their rights within Islamic law are specifically highlighted. The research demonstrates that Islamic values regarding children are founded on principles of compassion, justice, and responsibility, and play a significant role in ensuring children's rights in modern society.

Keywords: history of children's rights, Islam, child, childhood, rights, Quran, Sunnah, upbringing, responsibility, compassion.

KIRISH

Insoniyat jamiyatining eng asosiy va muhim bo'g'inlaridan biri bu bola hisoblanadi. Bola - nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning kelajagi, uning barqarorligi va taraqqiyoti garovi hisoblanadi. Shu sababli, bolaning huquqlari va ularning himoyasi har qanday madaniyat va din uchun ustuvor vazifa bo'lib kelgan. Islom dini ham inson huquqlariga, xususan, bola huquqlariga alohida e'tibor qaratadi. Islom ta'limotida bola nafaqat jamiyat a'zosi sifatida, balki o'zining shaxsiy huquqlari va erkinliklariga ega mustaqil shaxs sifatida ko'riladi.

Islom manbalarida – Qur'on va hadislarida bola huquqlari keng yoritilgan bo'lib, ular bolaning hayoti, tarbiyasi, ta'limi, moddiy va ma'naviy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha jihatlarni qamrab oladi. Ushbu huquqlarni ta'minlash, odamlarning farzandlariga bo'lgan mas'uliyatini anglashlari va ularga munosib sharoit yaratishlari islom huquqining bosh qoidalaridan biridir.

Shuningdek, zamonaviy dunyoda bola huquqlarini ta'minlash masalasi xalqaro miqyosda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bunda Islom ta'limotining bola huquqlariga oid tamoyillari nafaqat diniy, balki huquqiy va ijtimoiy sohada ham muhim manba sifatida qabul qilinmoqda. Shu bois, Islomda bola va uning huquqlari masalasini chuqur o'rganish, ularni zamonaviy kontekstda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Avvalo, bola va bola huquqi tushunchalari, uning paydo bo'lishiga nazar solinadigan bo'lsa, uning uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo'lib, jamiyatning bolalarga nisbatan munosabatining o'zgarishi, ularning ehtiyojlarini anglash hamda ularning jamiyatdagi o'rnini belgilash bilan bog'liq ekanligini ko'rish mumkin.

Mualliflar jamoasining "Bola huquqlari va ijtimoiy ish" nomli maqolada Yevropada bola huquqlari tarixi haqida so'z yuritilib quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: Bola huquqlari haqidagi munozara, hatto zamonaviy inson huquqlari muhokamasi doirasida ham, nisbatan yangi hisoblanadi. Yaqin o'tmishda bolalar huquqlari haqida gapirish bema'ni tuyulgan. Bola huquqlari tushunchasi faqat so'nggi o'n yilliklarda keng qo'llab-quvvatlandi. Bolalar huquqlari nafaqat nisbatan yangi g'oya, balki bolalik va bola tushunchalari ham nisbatan yaqinda shakllangan [1:9].

Islomgacha bo'lgan davrda bolalar huquqlari bo'yicha qadimgi davrlarda bolalarning ahvolini o'rganish uchun bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Qadimgi hujjatlar (papiuslar)ni o'rganish natijasida ellin huquqi ota-onalarga bergan vakolatlar, jumladan bolaning shaxsini garovga qo'yish imkoniyati aniqlangan. Qiyinchilik tug'ilganda, ota o'z farzandini sotish, sovg'a qilish, garovga

qo'yish yoki boshqa usullar bilan tasarruf etishi shart edi. Rim imperiyasining huquqiy plyuralizmi tufayli bu amaliyotlar taqiqlangan bo'lsa-da, davom etavergan. Tadqiqotchilar Buyuk imperiya davrida Misrda keng tarqalgan bolalar savdosining o'ziga xos usullarini aniqlashga muvaffaq bo'lganlar. Shuningdek, otaning turmushga chiqqan qizini, hatto uning xohishiga qarshi bo'lsa ham, eridan qaytarib olish huquqi mavjud bo'lgan [2:2].

Tadqiqotlari, asosan, bolalar huquqlari, yoshlar jinoyatchiligi va ijtimoiy adolatga qaratilgan Shotlandiyaning Stirling universiteti professori Sharon Skott ma'lumotlariga ko'ra, Spartada bolalar tug'ilganidanoq saralanardi. Sog'lom bolalar yashab qolgan, zaif bolalar esa o'ldirilgan. Bolalar hayotining dastlabki yetti yilida ota-onalar ishtirokisiz enagalar tomonidan tarbiyalangan. U yana shuni qo'shimcha qiladiki, yetti yoshgacha bo'lgan bolalar ta'limga qobiliyatsiz deb hisoblanib, Gretsiyaning bilimga asoslangan tizimida ahamiyatsiz sanalgan.

Yevropa huquqining tarixiy ildizi hisoblangan Rim huquqida oila boshlig'i bolaga nisbatan mulkka o'xshash huquqqa ega deb hisoblangan. Oila boshlig'i bolani qul sifatida sotishi, xohlasa o'ldirishi mumkin edi. Rim imperatori Yustinian davrigacha bu amaliyot davom etdi va bu davrda bolaning manfaatlarini ko'zlab o'zgartirishlar kiritildi. Qadimgi yunon huquqida ham vaziyat boshqacha emas edi, Arastu va Aflotun bolani o'ldirish huquqi otada bo'lishi kerakligini ta'kidlashgan. Qadimgi Yunon davlatlaridan Spartada esa yangi tug'ilgan chaqaloqlar kohinlar tomonidan jismoniy tekshiruvdan o'tkazilardi, bolada biron-bir nuqson bo'lsa, unga yashashga ruxsat berilmasdi. Nogironligi bo'lgan yoki tashqi ko'rinishida nuqsoni bo'lgan shaxslar Sparta jamiyatini orqaga surishi mumkinligi fikri bilan bu amaliyotlarni marosimga aylantirgandilar [2:2].

Qadimgi jamiyatlarda bolalar ko'pincha huquqlarga ega bo'lgan shaxslar emas, balki mulk sifatida qaralgan [3].

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, qadimgi davrda bolalarga nisbatan zo'ravonlik, ekspluatatsiya va e'tiborsizlik keng tarqalgan edi. Bolalar huquqi haqida hech qanday tushuncha mavjud bo'lmagan.

Islomdan oldingi Arab yarimoroli tarixi islom tarixining to'liq yoki bir qismini o'rganadigan tarixchilar tomonidan odatda e'tiborsiz qoldirilmaydigan sohadir. Islom dinining qanday muhit va sharoitlarda insoniyatga taqdim etilganligi, olib kelgan yangiliklari, ayniqsa uning ustunligi, "johiliyat davri" deb ham nomlangan bu davr bilan taqqoslanib, ochib berishga harakat qilingan. Johiliyat davri tushunchasi doirasida odatda geografik jihatdan Arab yarim oroli, vaqt jihatidan esa islom dinidan oldingi davr nazarda tutiladi [4:1].

Islomgacha bo'lgan arablarda qiz bolalarning sha'niga dog' tushirishi va oilasining obro'siga putur yetkazishi xavfi tufayli, ularni tiriklayin ko'mish odati bor edi. Qiz bolalarning esa hech qanday meros huquqi yo'q edi. Tuproqqa ko'mish jarayoni quyidagicha amalga oshirilgan: agar farzandi tug'ilgan ota yoki ona uning yashashini istamasa, chuqur qazib bolani ichiga tashlar va ustini tuproq bilan yopardi. Shunday qilib, bola havo yetishmasligidan bo'g'ilib jon berardi. Ota bu ishni ba'zan bolani dunyoga keltirgan onaga yoki boshqa birovga qildirardi. Bolani ko'mgan kishi, chuqurni yopgandan so'ng tepalik qoldirmas, tuproqni tekislardi. Shunday qilib, bola ko'milgan joy qabr kabi saqlanmas, inson dafn etilganligini ko'rsatadigan balandlik yoki boshqa biron-bir belgi qoldirilmay, go'yo unutishga tashlab qo'yilardi.

Odatda bolalar uchta sababdan biri tufayli o'z ota-onalari tomonidan o'ldirilgan [5:12].

Ba'zi savodsiz va xurofotga berilgan qabilalar o'zlarining yasab olgan xudolarini rozi qilish uchun buni marosim sifatida qilishgan. Ular xudolari tinchlansin, yomg'ir, urushda g'alaba, sog'liq va hokazolar ato etishi uchun o'z farzandlarini qurbon qilishar edi. Ba'zan agar duolari ijobat bo'lsa, qurbongohda o'z farzandlarini qurbon qilishga va'da berishgan. Eng ajablanarlisi, ayollar ham bu dahshatli jinoyatlarning ishtirokchisi bo'lgan.

Farzand tarbiyasidagi moddiy yuk tufayli odamlar o'z farzandlarini o'ldirishgan. Bunday ota-onalar bolalarini o'z yelkalariga keraksiz yuk deb o'ylashgan [5:13].

Uchinchi sabab eng g'ayriinsoniydir. Islomdan oldingi davrdagi arablar soxta mag'rurlik, xudbinlik va manmanlik tufayli sharmandalikdan qo'rqib qizlarini tiriklayin ko'mishgan [5:14].

Qur'oni karim johiliyat davrida odamlarning qiz bolaga bo'lgan munosabatini ochiq tasvirlaydi: "Zuxruf" surasi 17-oyat:

وَإِذَا بُشِّرَ أَحَدُهُمْ بِمَا ضَرَبَ لِلرَّحْمَنِ مَثَلًا ظَلَّ وَجْهُهُ مُسْوَدًّا وَهُوَ كَظِيمٌ ﴿٧١﴾

"Qachonki ulardan birortasiga, Rohmanga misol keltirgan narsaning xushxabari berilsa, g'azabga to'lib, yuzi qorayib ketur".

Mushriklar, Allohning farishtadan qizi bor, deyishadi-yu, o'zlariga, qiz ko'rding, degan xushxabar kelsa, xafa bo'lib, g'azabga to'lib, yuzlari qorayib ketadi. O'ziga qiz farzand bo'lishini shunchalar yomon ko'radi [6:373].

Nahl surasi 58-59-oyatda:

وَإِذَا بُشِّرَ أَحَدُهُم بِالْأُنثَىٰ ظَلَّ وَجْهُهُ مُسْوَدًّا وَهُوَ كَظِيمٌ ﴿٨٥﴾ يَتَوَارَىٰ مِنَ الْقَوْمِ مِن سُوءِ مَا بُشِّرَ بِهِ ۚ أَيُمْسِكُهُ عَلَىٰ هُونٍ أَمْ يَدُسُّهُ فِي التُّرَابِ ۗ أَلَا سَاءَ مَا يَحْكُمُونَ ﴿٩٥﴾

"Qachonki ulardan biriga qizning xushxabari berilsa, g'am-alamga to'lib, yuzi qorayib ketur. Unga berilgan xushxabarning yomonligidan (uyalib) qavmidan berkinur. U (qiz)ni xorlikla olib qolsamikin yoki tuproqqa ko'msamikin? Ogoh bo'ling! Ular qilgan hukm naqadar yomon" [7:348].

Shuningdek, o'sha davrda qabilaviy bo'linishlar, ayollarning jamiyatdagi mavqeining poymol etilishi, huquqiy institutlarning zaifligi va moliyaviy hamda ijtimoiy nohaqlik keng tarqalgan edi. Ana shunday tarixiy-ijtimoiy sharoit fonida payg'abarlikning yuzaga chiqishi – ijtimoiy muammolarning hal qilinishida dinning jamiyatdagi o'rniga yaqqol misoli sifatida islom dinining zohir bo'lishida namoyon bo'ldi. Islom ta'limotining asosiy manbalari – Qur'on va Sunnat – orqali ilgari surilgan tamoyillar inson qadr-qimmat, ijtimoiy adolat, teng huquqlilik va jamiyatni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni belgilab berdi. Natijada islom dini qonun-qoidalari va axloqiy normalari oilaviy munosabatlar, meros va mol-mulk taqsimoti, ijtimoiy himoya va sud-huquq sohalarida amaliy islohotlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy asosini yaratdi.

Islom huquqida bola huquqlarining shakllanishiga to'xtalinadigan bo'lsa, albatta, ular ilk bor fiqhning asosiy manbasi bo'lgan Qur'oni karimda o'z aksini topgan. Bugungi kunda ham islom huquqida bolalarga oid biror bir masalani ko'rib chiqmoqchi bo'linsa, avvalo, Qur'onga,

agar topilmasa yoki uni yanada to'ldirish uchun sunnatga murojaat etiladi. So'ng faqih, mujtahid (islom qonunshunoslari) tomonidan Qur'on va sunnat asosida chiqarilgan hukm va fatvolarga suyanganda holda bola huquqlari to'ldirib rivojlantirib borilgan. Jumladan, buyuk allomalar Burhoniddin al-Marg'inoniyning "Hidoya", Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'janing "Majma'ul-Maqsud" asarlarining ayrim qismlari bola huquqlari masalasiga to'xtalganiga shohid bo'lish mumkin. Islom huquqida aynan bola huquqlariga bag'ishlangan tarixiy manba faqih Majduddin al-Ustrushaniyning "Jomi' ahkom as-sig'or" asari hisoblanadi. Uzoq asrlar sinovidan o'tgan ushbu asar ota-ona va voyaga yetmagan farzandlarning o'z haq-huquqlari va vazifalarini tanish va tanitishda ajoyib durdona sifatida qadrlidir [8:13].

Tadqiqotchi olim M. Atayevning ta'kidlashicha, bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha sivilizatsiyalar tarixida Majduddin al-Ustrushaniyning 1228-yilda yozib tugatgan "Jomi' ahkom as-sig'or" asari mazkur yo'nalishdagi eng birinchi huquqiy manbadir. Ushbu asar haqida olim A.Saidov shunday deydi: "Bu fiqhshunos olimning dunyo tamaddunidagi o'rni g'oyatda betakror. Chunki u insoniyat tarixida bola huquqlariga oid maxsus yaratilgan dastlabki va yagona ilmiy-huquqiy asar – "Jomi' ahkom as-sig'or"ning muallifi sanaladi. Yevropalik olimlar mazkur kitobni "bola huquqlariga oid tarixdagi yagona konstitutsiya" deb ataydilar" [8:13].

"Jomi' ahkom as-sig'or" asarining o'ziga xosligi shundaki, unda fiqhga oid yuzdan ortiq manbalarda tarqoq holda kelgan bolalarga taalluqli shar'iy fatvolar to'planib, tartib asosida berilgan. Bu asarni yozishda Ustrushaniy hanafiy mazhabining o'z davrigacha yashagan 120 dan ortiq faqihlarining hukm va fatvolarini o'rganib, o'z asarini mujassamlashtirganini ko'rish mumkin. Shu jihatlari bilan bu asar hozirgi zamon islomshunos va islom huquqi tarixi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun muhim manba hisoblanishi bilan bir qatorda zamonaviy huquqshunoslik uchun foydali ekanini alohida qayd etish lozim [8:14].

Bola masalasi islom huquqida keng va batafsil ko'rib chiqilgan masalalardan biri bo'lgan. Qur'oni karim va sunnatda balog'at yoshiga qadar bolaning

mukallaf hisoblanmasligi, bolalik davrini alohida o'rganish sohasi bo'lishiga sabab bo'lgan. Islom mutafakkirlari bolalik davrini alohida ko'rib chiqqanlar, bu davrni ta'lim, ma'rifat va quvonch davri sifatida belgilaganlar.

Islom huquqiga ko'ra bolalarga berilgan ta'riflar bugungi kundagi ta'riflardan unchalik farq qilmaydi. So'nggi davr olimlaridan Ali Haydar afandi bolani "Tug'ilish va balog'at orasidagi bir fitrat holatidir" deb ta'riflagan. Ya'ni hali balog'atga yetmagan vasiylik ostidagi inson holatidir. Boshqa bir ta'rifga ko'ra "Sabi (bola) tug'ilish vaqtidan to balog'at vaqtigacha bo'lgan insondir" deyiladi [9:5].

Islom huquqshunoslari bolalik davrlarini homila, go'daklik, tamyiz yoshi, balog'at va roshidlik kabi besh davrga bo'lib o'rganganlar [10:6].

Homila davri ona bachadoniga tushish bilan boshlanadi, tug'ilish bilan tugaydi. Homilaning cheklangan huquq layoqati mavjud bo'lsa-da, u majburiyat layoqatiga ega emas. Homila nasab, meros, vaqf, vasiyat kabi to'rt huquqni tirik tug'ilish sharti bilan qo'lga kiritadi. Homilaning tushishiga sababchi bo'lgan kishi g'urra deb nomlangan tovon to'lashga majbur bo'ladi [9:8].

Islom huquqiga ko'ra, go'daklik davri bola tug'ilganidan to tamyiz qobiliyatini qo'lga kiritadigan yetti yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrdagi bolaga g'ayri mumayyiz deyiladi. Bolaning bu davrda huquq layoqati to'liq bo'ladi. Biroq majburiyat layoqatiga ega emas. Qonuniy vakilning ruxsati bo'lsa ham huquqiy harakatlarni amalga oshira olmaydi [9:8].

Tamyiz yoshi bolaning tamyiz qobiliyatini qo'lga kiritishidan (yetti yoshidan) to balog'atga yetguniga qadar bo'lgan davrdir. Mumayyiz to'liq huquq layoqatiga ega bo'lsa-da, cheklangan majburiyat layoqatiga ega. Jinoiy javobgarlik layoqatiga ega emas va shu sababli hadd va qasos jazolari qo'llanilmaydi; ammo jinoyat sodir etsa, tarbiyaviy xavfsizlik choralari qo'llanilishi mumkin. Tamyiz qobiliyati insonning yaxshini yomondan, to'g'rini noto'g'ridan, foydani zarardan ajrata olish va qilgan ishining oqibatlarini idrok etish qobiliyatidir. Bu davrdagi bolaga mumayyiz deyiladi. Payg'ambar Muhammad

(s.a.v) ham yetti yoshdan boshlab bolalarni namozga rag‘batlantirishga buyurganlar, islom huquqshunoslari yetti yoshni tugallanganidan keyin bolaning mumayyiz bo‘lganini tan olganlar [9:9].

Islom huquqiga ko‘ra, balog‘at yoshi biologik yetuklikni anglatadi. Balog‘at yoshi qizlarda hayz ko‘rish, o‘g‘il bolalarda esa ehtilom bo‘lish bilan boshlanadi. Balog‘at yoshi yosh, iqlim, jinsga qarab farq qiladi. Ya‘ni u shaxsdan shaxsga o‘zgarishi mumkin bo‘lgan hodisadir. Balog‘atda quyi yosh chegarasi qizlarda 9, o‘g‘il bolalarda 12, yuqori chegara esa har ikkalasida 15 yoshdir. Abu Hanifaga ko‘ra, yuqori chegara qizlarda 17, o‘g‘il bolalarda esa 18 yoshdir. Balog‘at davridagi shaxslar oila huquqi va jinoiy huquq bo‘yicha to‘liq layoqatga ega bo‘ladilar. Biroq, voyaga yetmaganlar moliyaviy masalalarda cheklangan majburiyat layoqatiga ega bo‘ladilar. Moliyaviy masalalarda ham to‘liq majburiyat layoqatiga ega bo‘lish uchun roshidlik talab qilinadi [9:9].

Islomda bolaning aqliy va jismoniy qobiliyatining hali yetarli emasligidan kelib chiqadigan ojizligi sababli uni e‘tiborsizlikdan, suiiste‘mollikdan, zo‘ravonlik va yomon muomaladan himoya qiladigan ko‘plab choralar ko‘zda tutilgan.

Islom dini farzand ko‘rishni rag‘batlantirish bilan birga, ota-onalarning moddiy-ma‘naviy jihatdan katta mas‘uliyatga ega ekanligiga ishora qilgan. Ota-onaning beqiyos mehri va g‘amxo‘rliqi bolani mutlaq zaiflik va ojizlik bosqichidan mukammal kuch va mustaqillikka olib chiqadi. Quyida Islom tomonidan har bir bolaga, shu jumladan yetimlarga berilgan asosiy inson huquqlari keltirilgan:

1. Yashash va uning zaruriyatlariga bo‘lgan huquq.

2. Tarbiya olish huquqi.

3. Mehr-muhabbat olish huquqi.

4. Umumiy g‘amxo‘rlik olish huquqi.

5. Nasl-nasabga ega bo‘lish huquqi.

6. Merosga bo‘lgan huquq.

7. Tenglik huquqi.

8. Ta‘minot olish huquqi.

9. Ta‘lim olish huquqi.

10. Moddiy jihatdan yaxshi ta‘minlanish huquqi.

11. Himoyalaniish huquqi.

Bularning har biri tegishli Qur‘on oyatlari va Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) hadislar bilan birma-bir va batafsil muhokama qilinadi [11:2].

Islomda ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar ham huquqiy, ham axloqiy jihatdan muayyan asoslarga bog‘langan. Bolani musulmon qilib tarbiyalash, dunyo va oxirat saodatini e‘tiborga olish, milliy qadriyatlari bilan uyg‘un bo‘lishi, madaniyatli va sog‘lom shaxs sifatida jamiyatga qo‘shish ota-onaning asosiy mas‘uliyatlaridandir. Garchi bu mas‘uliyat birinchi navbatda otaga tegishli bo‘lsa-da, ona ham bu mas‘uliyatda sherik bo‘ladi. Shuningdek, bolaning shaxsiy huquqlari va mol-mulkini himoya qilish ham otaning asosiy vazifalaridan biridir. Islom huquqida turli qarashlar mavjud bo‘lsa-da, umumiy qabulga ko‘ra, farzand balog‘atga yetgunga qadar uning shaxsi ustidan, to rushd bo‘lguncha esa mol-mulki ustidan tasarruf qilish huquqi birinchi navbatda otaga tegishli. Valiylikka bog‘liq holda otaga berilgan bu tasarruf huquqi otalik xususiyatidan kelib chiqadi va har qanday sud qaroriga yoki vakolatlarni topshirishga muhtoj emas. Zero, bu valiyluk majburiy bo‘lib, bu valiylukdan voz kechish yoki qochish mumkin emas. Otaning yo‘qligi yoki valiylikka layoqatsiz bo‘lgan taqdirda, bu vakolat boshqa qonuniy vakillarga beriladi.

Bolalar farovonligi insoniyatning yorqin kelajagi poydevori ekanligiga hech qanday shubha yo‘q. Islom inson hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi mukammal va yaxlit tizim bo‘lgani uchun, u bola huquqlarini ta‘minlaydigan va uni to‘g‘ri tarbiyalashni kafolatlaydigan huquqiy va ijtimoiy tuzilmalar asosini yaratadi. Farzandlar har bir millatning boyligi va insoniyat naslining davomchilaridir. Ayni paytda, ular Allohning in‘omi bo‘lib, ota-onalar, qarindoshlar va jamiyatga ishonib topshirilgan. Shu sababli, bola ehtiyojlari islom huquqi va axloqining asosiy e‘tibor markazida turadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, islom bolalikka katta e‘tibor qaratadi va musulmonlar bolalarni Alloh taoloning omonati va in‘omi deb bilishadi. Ota-onalar bu omonat uchun qiyomat kuni javobgar bo‘ladilar. Islom bolalarning to‘g‘ri

tarbiyalanishiga va ularning huquqlariga alohida e'tibor beradi, toki ular hayotdagi qiyinchiliklarga dosh bera olsinlar. Bolaning manfaati har doim ota-onaning ustuvor vazifasi bo'lishi lozim. Bolalar tarbiyasi va ularning huquqlariga oid barcha tamoyillar Qur'oni karim va Payg'ambar (s.a.v.) sunnatlarida keltirilgan. Bu huquqlar shunchalik muhimki, ular bolaga hatto u tug'ilmasidan oldin beriladi. Islomda nikoh uchun ayolning go'zalligi yoki boyligi emas, balki uning xulq-atvori va axloqiga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Inson huquqlariga hurmat jamiyatning o'z bolalariga munosabatidan boshlanadi. Bola huquqlari va inson huquqlarini ajratib bo'lmaydi, chunki bolalar kelajak avlodidir. Kelajak avlodning qadr-qimmatini himoya qilish va ularning ehtiyojlarini qondirish jamiyatga xizmat qiladigan eng yaxshi fuqarolarni tarbiyalashning eng muhim omilidir. Boshqa tomondan, bolalarga nisbatan zo'ravonlik ularning o'qish qobiliyatini zaiflashtiradi va xavfsizlik hissini yo'qotganlari sababli ularni asabiylashtiradi. Bu esa zo'ravonlikka uchragan bolaning jinoyat sodir etishiga olib kelishi mumkin. Oila keyingi avlodni tarbiyalashda jamiyatning eng muhim bo'g'inidir. Agar oilada muammo bo'lsa, bolalar, oila va butun jamiyat aziyat chekadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hanita Kosher, Yael Hendelsman, Asher Ben-Arieh, *The History of Children's Rights*. Springer, 2017. 75 p.
2. Mohammed Houmine and Khadija Loudghiri. *Exploring Child Rights and the Concept of Childhood in Islam: A Contemporary Descriptive Analysis*. Khazanah Hukum, 2023. Vol. 5 No. 2: 130-147.
3. Zeljka Mazinjanin. *Children's right history*. 2024. <https://www.humanium.org/en/childrens-rights-history/>
4. Yrd. Doç. Dr. Yavuz Yıldırım. *İslam öncesi arap yarımadasında çocuk öldürme olgusu*. İstanbul Üniversitesi İlahiyat Fakültesi, 2012. – 33 s.
5. Khalid Dhorat, *The Rights of Children in Islam*. University South Africa, 1996. 189 p.
6. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. *Tafsiri hilol*. – J. 5. – Tashkent: "Hilol-Nashr", 2013. – 672 b.
7. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. *Tafsiri hilol*. – J. 3. – Tashkent: "Hilol-Nashr", 2013. – 672 b.
8. Karimova D. *Islom ta'limotida bola huquqlari va ta'lim-tarbiyasiga oid me'yorlar*. – Tashkent: "Tafakkur nashriyoti", 2024. – 248 b.
9. S. E. Zorlu, "Günümüz ve İslam Hukukunda Çocuk Hakları Karşılaştırmalı Bir İnceleme", *Selçuk Üniversitesi Hukuk Fakültesi Dergisi*, vol. 21, no. 2, pp. 125–160, 2013. – 36 s.
10. Zorlu S. E, Bilgin A. S. *Çocuk Hakları, Tarihî Gelişimi ve Çocuk Suçluluğu*. Gaziantep University Journal of Social Sciences. Vol. 2024, 23 Issue: 2. – 18 s.
11. Dr. Nooreen Zaidi. *Human rights of children in Islam*. International Journal of Criminal, Common and Statutory. Vol. 2, Issue 1, 2022. – 7 p.